

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA TIBBIYOTGA DOIR TERMINLAR XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

O‘razboyev Olimjon Rustam o‘g‘li
Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillariga tibbiyot terminlarining kirib kelishi, va uning katta ijtimoiy ahamiyati tasvirlangan. Tibbiy matnlarni aniq tarjima qilish.

Kalit so‘zlar: Tibbiyot, termin, o‘zbek, qoraqalpoq, fiziologiya, semantik usulda, diaxronik xususiyatga, "kardio", retseptlar, gipo.

Tibbiyot terminologiyasining ta’rifi va kelib chiqishiga ko‘ra - bu tibbiy sohaning shart-sharoitlari, protseduralari, davolash usullari, asboblari va boshqa jihatlarini tavsiflash uchun ishlatiladigan texnik atamalar to‘plami. Ushbu atamalar odatda lotin yoki qadimgi yunon tillaridan olingan bo‘lib, ular ikki ming yil oldin yunon va rim shifokorlari tomonidan yaratilgan. Lotin tili zamonaviy tibbiyot terminologiyasining ona tili hisoblanadi. Rim shifokorlari bu tildan o‘zlarining klinik kuzatishlari va tibbiy nazariyalarini tasvirlash uchun foydalanganlar. Vaqt o‘tishi bilan lotin tili ingliz, nemis va fransuz kabi xalq tillari bilan almashtirildi. Biroq, barcha sog‘liqni saqlash mutaxassislari uchun umumiy lug‘at yaratish uchun ko‘plab lotin atamalari asl yoki o‘zgartirilgan shaklda saqlangan. Ilmiy tibbiyot terminologiyasi muhim ahamiyatga ega, chunki u sog‘liqni saqlash mutaxassislari o‘rtasida to‘g‘ri muloqot qilish imkonini beradi. Standartlashtirilgan terminologiyadan foydalangan holda, retseptlarda yoki test natijalarini sharhlashda xatolik ehtimoli kamroq. Tibbiyot mutaxassislari tibbiy yozuvlar, protseduralar va muolajalarni ham yaxshiroq tushunishlari mumkin. Bundan tashqari, tibbiyot mutaxassislari tayyorlashda ilmiy tibbiy terminologiya muhim ahamiyatga ega. Standartlashtirilgan tildan foydalangan holda, tibbiyot talabalari osonroq va aniqroq o‘rganishlari mumkin. Sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislari umumiy atamalardan foydalangan holda xalqaro tadqiqotlar va tadqiqotlarda ham ishtirok etishlari mumkin. Ilmiy tibbiyot terminologiyasi prefikslar, ildizlar va

qo'shimchalardan tuzilgan. Prefikslar so'zning ma'nosini o'zgartirish uchun boshiga qo'shiladi. Masalan, "gipo-" prefiksi "ostida" degan ma'noni anglatadi, shuning uchun "gipotenziya" "past qon bosimi" degan ma'noni anglatadi. Ildizlar so'zning yuragi bo'lib, ko'pincha bu atamada ishtirok etgan organ yoki tana tizimini ko'rsatadi. Masalan, "kardio" so'zi lotin tilidan "yurak" degan ma'noni anglatadi, shuning uchun kardiologiya, kardiogramma kabi atamalar yurakni anglatadi.[1.34]

Qo'shimchalar so'z oxiriga qo'shib, so'zning ma'nosi yoki grammatik vazifasining o'zgarishini bildiradi. Masalan, *-ite (-xit)* qo'shimchasi yallig'lanishni anglatadi, shuning uchun bronchite (bronxit) bronxlarning yallig'lanishini anglatadi. Ilmiy tibbiy terminologiyada ishlatiladigan atamalarning ba'zi umumiy misollari: *Anatomiya*: Inson tanasining tuzilishini o'rganadigan fan. Umumiy atamalarga *squelette (skelet)*, *muscles (mushaklar)*, *organes internes (ichki organlar)* kiradi. *Fiziologiya*: Inson tanasining faoliyatini o'rganadigan fan. Umumiy atamalarga *respiration (nafas olish)*, *circulation sanguine (qon aylanishi)*, *digestion (hazm qilish)* kiradi. *Patologiya*: kasalliklarni o'rganadigan fan. Umumiy atamalarga *cancer (saraton)*, *diabète (diabet)*, *maladie d'Alzheimer (Altsgeymer kasalligi)* kiradi. *Farmakologiya*: Dori vositalari va ulardan kasalliklarni davolashda foydalanishni o'rganadigan fan. Umumiy atamalarga *antibiotique (antibiotik)*, *analgésique (og'riq qoldiruvchi)*, *anti-inflammatoire (yallig'lanishga qarshi)* kiradi. Bizning qiyosiy tahlilimiz turli tibbiyot mutaxassisliklari o'rtasida tibbiy atamalarni qo'llashda sezilarli farqlarni aniqladi. Misol uchun, *arythmie (aritmia)* atamasi kardiologiyada yurak urishining tartibsizligini tasvirlash uchun ishlatiladi. *Dysrégulation (disregulyatsiya)* atamasi psixiatriyada g'ayri tabiiy hissiyotni tartibga solishni tasvirlash uchun ishlatiladi. [1.85]

Zamonaviy tibbiyot rivojlanishi natijasida o'zbek va qoraqalpoq tilshunosligida tibbiyot terminlarni o'rganishga doir ko'pgina ishlar amalga oshirilayapti. Ko'plab ilmiy kitoblar, risolalar, lug'atlar, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar yozilgan, dissertatsiyalar himoya qilingan. Bu borada 200 dan ortiq lug'atlarning nashr etilishi fanimizning katta yutug'i hisoblanadi. Uzoq tarixga ega bo'lgan ba'zi

fanlarning terminlari singari juda ko‘p so‘zlar hozirgi kunda tibbiyotda maxsuslashib, terminga aylanib, kishilarning kundalik turmushida faol qo‘llangani sababli, jonli tilimiz orqali bizgacha yetib kelgan: bosh-kalla, qo‘l, oyoq, panja, yelka, tovon, quloq, burun, o‘pka, jigar, buyrak, taloq singari terminlar shular jumlasidandir. O‘zbek va qoraqalpoq tibbiy terminlarning asosiy qismi xilma-xil yozma manbalar, ilmiy, tarixiy-badiiy asarlar hamda turli davrlarda tuzilgan lug‘atlar orqali yetib kelgan. Boshqa tillarda bo‘lgani kabi ikkala qardosh tilining ham barcha leksik resurslarida bo‘lgani kabi terminlarning ham o‘z boyish yo‘llari bor va ular tilimiz taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarga muvofiq keladi. Dunyoda chetdan so‘z o‘zlashtirmagan birorta ham til yo‘q. Hamma tillarda ham yangi tushunchani ifodalash uchun yo boshqa tildan tayyor termin qabul qilinadi, yo shu tilning o‘zida mavjud bo‘lgan so‘z yoki termindan foydalaniladi, yoki yangi termin yasaladi. Shu jumladan, biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan tibbiy terminologiya ham o‘zining ulkan taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Tibbiy terminlarni hosil qilishda xalq o‘zining kuzatishlariga, dunyoqarashiga tayangan. [2.42]

Ma‘lumki, hozirgi o‘zbek va qoraqalpoq tillarida so‘z ma‘nosining o‘zgarishi, ma‘noning ko‘chishi, polisemantik so‘zning ayrim ma‘nolari orasidagi bog‘lanishning yo‘qolishi, ayrimlarining maxsuslanishi orqali yangi so‘zning hosil bo‘lishi semantik yoki leksik-semantik usul bilan so‘z yasash deyiladi. Tibbiy terminlarning tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan tekshirish shuni ko‘rsatadiki, undagi ko‘pgina terminlar sof semantik usul bilan yasalgan. Masalan: *bosh*–gavdaning boshlanishi; *oyoq*–*adoq*–biror narsaning oxiri, so‘ngi, tugallanish qismi ma‘nolarini anglatib, keyinchalik odam organizmi nomi sifatida qo‘llana boshlagan. Shuningdek, hozirgi kunda tamoman boshqa-boshqa so‘z hisoblangan *qovurg‘a*–*qovoq*, *qopqoq* (bosh *qopqog‘i*), *qop* (o‘t *qopi*) kabi terminlarning barchasi “qoplamoq” fe‘lidan hosil bo‘lgan. “*Tomoq, tomir*” so‘zlari esa—tomchi holatida “tush” fe‘lidan hosil qilinganligi haqida mulohazalar bor, *soqol-saqoq* (badiiy asarlarda—iyak) so‘zlari esa—*saq*—past tomonga yo‘nalmoq ma‘nosini anglatib,

asosdoshlik kasb etgan. Asliga ko‘ra polisemantik bo‘lgan ushbu so‘zlar ma‘nolari orasidagi ichki bog‘lanish yo‘qolgan.[2.56]

Ushbu misollardan semantik usulda so‘z yasashning diaxronik xususiyatga ega ekanligi yaqqol ko‘rinadi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, semantik usulda termin yasash boshqa sohalar terminologiyasiga nisbatan tibbiyotda keng qo‘llanadi. Buning asosiy sababi tibbiy terminlarning o‘tmish davrlarda xalq tili asosida yuzaga kelib, jonli so‘zlashuv tili bilan mustahkam aloqada rivojlanganligidadir. Shuning uchun ularda xalq tiliga xos bo‘lgan ko‘pdan ko‘p metaforik qo‘llanishlar o‘z aksini topgan. Masalan: bosh kosasi, ko‘z kosasi, buyrak jomi, kalla qutisi kabi birikmalardagi kosa, jom, quti birliklari xalq tilida biror narsani solish uchun ishlatiladigan idish ma‘nosini bildiradi. Tibbiyotda shu idishlar shakliga o‘xshagan a‘zolar yoxud ularning qismlari mavjudki, bu, o‘z navbatida, metaforik o‘xshatish asosida quyidagi terminlarning yasalishiga sabab bo‘lgan. *Chanoq*—ko‘sakning bir xonasi. Qadimgi turkiy tilda—yog‘ochni o‘yib ishlangan tuzluq va shu kabi idish, kosa. Ma‘no taraqqiyoti natijasida bu so‘zning—idish ma‘nosi asosida—ko‘z kosasi va boshqa kosasimon narsa, shu jumladan,—ko‘sakning har bir xonasi ma‘nosi yuzaga kelgan. Ko‘z kosasi ma‘nosi yuqoridagi ma‘nodan oldin paydo bo‘lgan. Metafora ma‘no ko‘chishning o‘xshashlikka asoslangan turidir. Tibbiyotdagi chechak, ko‘richak, qoziq tish, quloq chig‘anog‘i, kiprik, ko‘z soqqasi, turk egari, do‘mboqcha singari terminlarni hosil bo‘lishida metaforadan foydalanilgan. Ular tashqi hamda shakliy o‘xshashlik asosida ma‘nolari ko‘chib, termin hosil bo‘lishida ahamiyat kasb etgan. Chechak so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu termin Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida—*ЧЭКЭК* shaklida ham uchraydi. Tibbiyotda ushbu termin odam va hayvonlarning o‘tkir yuqumli kasalligi. O‘rta asrlarda Roziy “Chechak va qizamiq haqida kitob” nomli asar yaratib, tibbiyot tarixida ilk bor ushbu kasallikni ta‘riflab beradi. Kasallik turli toshmalar bilan kechganligi sababli shu nom bilan ta‘riflanishga asos bo‘lgan. *Ko‘richak* —odam va sut emizuvchi hayvonlarda yo‘g‘on ichakning boshlanish qismi, o‘ng yonbosh chuqurchasida joylashgan bo‘lib, uning yonbosh ichakka qo‘shilish joyida yarimoysimon burmalari, qopqog‘i bor. Terminga e‘tibor

qaratadigan bo‘lsak, uning bir tarafi yopiq bo‘lgani uchun shu nom bilan atalishiga sabab bo‘lgan. Ba‘zi bir umumiste‘moldagi so‘zlar o‘xshashligigagina emas, balki vazifasiga ko‘ra (vazifadoshlik asosida) ham yangi termin yasalishiga asos bo‘lishi mumkin.[4.25]

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda tibbiyotining izchil rivojlanishi va uning xalqaro miqyosga chiqishi kuzatilmoqda, shu munosabat bilan turli mamlakatlar shifokorlari bilan kasbiy tajriba almashishga ehtiyoj kuchaymoqda. Bo‘lajak shifokorlar oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bu ilmiy bilimlar tarmog'ining hozirgi holatini aks ettiruvchi universal terminologik tizimni yaratilishidir. Yangi atamalarning deyarli uzluksiz paydo bo‘lishi sababli tibbiyot sohasida band bo‘lgan xodimlarning yanada samarali hamkorligi uchun ularni boshqa tillarga tarjima qilish zarurati paydo bo‘ldi. Bundan tashqari, ingliz tilidan o‘zbek va qoraqalpoq tillariga o‘zlashgan tibbiyot sohasiga doir so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish ham juda muhimdir. Shuningdek, ko‘p so‘zlar bir xil talaffuz qilinadi, lekin mazmuni jihatidan boshqacha va bir-biridan butunlay farq qilishi mumkin. *Masalan, ileum* [iliəm] – ingichka ichakning bir qismi, *illium*[iliəm]-chanoqning bir qism, ya’ni yonbosh suyagi. Tibbiyotda nafaqat so‘zning noto‘g‘ri talaffuzi, balki noto‘g‘ri yozilishi ham tibbiyot xodimlari uchun bemorga to‘g‘ri tashxis qo‘yishda katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday xatoliklar, o‘z navbatida, nafaqat bemorni noto‘g‘ri davolashga, balki uning o‘limiga ham olib kelishi mumkin. *Masalan, hepat/oma* so‘zi *jigar raki* va *hemat/oma* so‘zi esa *qon raki* degan ma’noni anglatadi. Yoki aksincha, agar so‘z to‘g‘ri yozilgan bo‘lsa-yu, lekin talaffuzi noto‘g‘ri bo‘lsa, uning ma’nosini tushunish qiyin bo‘lishi mumkin. Masalan, *urethra* [juə’ri:θrə] so‘zi o‘zbek va qoraqalpoq tillariga *siydik pufagidan tashqi yuzaga olib keluvchi siydik nayi* ma’nosini anglatga, ammo *ureter* [ju’ri:trə]so‘zi esa *buyrakdan siydik pufagiga olib keluvchi naylardan biri* degan ma’noni bildiradi.[4.58]

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida tibbiyot terminologik tizimida semantik usul, ya’ni leksik birliklarning ma’nosini ko‘chirish yo‘li bilan ko‘plab terminlarni hosil qilish mumkin. Bu jarayonda metaforaning o‘xshatish

tamoyili muhim rol o'ynaydi. Ilmiy tibbiy terminologiya zamonaviy tibbiyot amaliyotining muhim qismidir. Ushbu terminologiyani tahlil qilish tibbiy tushunchalarni tushunish va ularni klinik amaliyotda qo'llash uchun foydali usuldir. Shu bilan birgaikda tibbiyotning turli ixtisosliklarida qo'llaniladigan o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi tibbiy atamalar o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni, shuningdek, ushbu atamalarning klinik amaliyotda qo'llanilishini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maxmudov Z. M., Sharipov b. s. Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning didaktik tamoyillari va uning asosi haqida fikrlar //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1028-1033.
2. Mardanovich M. Z. et al. Some Considerations about Legal Solutions and Practices of Certain Problems Writing Recipes //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 341-5352.
3. Salimovich S. B. Reciprocal symmetry and its grammatical Indications //epra International Journal of Research and Development (IJRD). – 2022. – T. 7. – №. 12. – C. 129-131.
4. Sharipov B. Retsiproklik xususida mulohazalar //Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar. – 2022. – T. 1. – №. 19. – C.
5. Abdullayev, S., & Abdullayev, O. (2023). O'zbek va qoraqalpoq tillarida iqtisodiyot sohasiga doir zamonaviy leksika. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(31).
6. Абдуллаев, С. (2023). Структурно-семантические особенности пословиц в узбекском и каракалпакском языках. Американский журнал языка, грамотности и обучения в области STEM-образования (2993–2769), 1(9), 70-73.
7. Dauletbayevich, A. S. (2021). The Expression of the Symbolic Phrases" to Think. Uzbek-Karakalpak Literary Text. International Journal on Integrated Education, 4(10), 57-58.